



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 5



### BOLA HUQUQLARI

**Inomjonov Zaxiriddin Zafarjon o'g'li**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti  
Qishloq xo'jaligi huquqi va Agroturizm kafedrasi asistenti*

**Olimov Azizbek Furqatovich**

*Andijon qishloq xo'jaligi va Agrotexnologiyalar instituti  
Yurisprudensiya faoliyat turlari bo'yicha ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bola huquqlari, ularni himoya qilishning yuridik asoslari, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar, yosh avlodni erkinligini, insonparvarligini, komil inson bo'lib yetishishini, inson sifatida jamiyatda teng huquqda bo'lishi hamda uning mazmuni-mohiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zları:** Bola, bola huquqlari, yosh avlod, insonparvarlik tamoyillari, huquq va erkinliklar, bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun, huquqiy madaniyat, bolaning maqsadi, qonun ustuvorligi, voyaga yetmaganlar.

**Annotation:** This article covers the rights of the child, the legal framework for their protection, the work carried out in this area, the freedom, humanitarianism of the younger generation, the development of a perfect person, the equal rights of a person in society, and its content and essence.

**Keywords:** Child, Child Rights, younger generation, humanitarian principles, rights and freedoms, Child Rights guarantees law, legal culture, child purpose, rule of law, minors.

**Аннотация:** В данной статье освещаются права ребенка, правовые основы их защиты, проводимая работа в данной области, воспитание подрастающего поколения в духе свободы, гуманизма, зрелости как совершенного человека, равноправия в обществе как личности, а также ее содержание.

**Ключевые слова:** Ребенок, права ребенка, подрастающее поколение, принципы гуманизма, права и свободы, закон О гарантиях прав ребенка, правовая культура, цель ребенка, верховенство закона, несовершеннолетние.

Yosh avlodni erkin demokratik insonparvarlik tamoyillari asosida inson ruhida o'stirish, ularning nafaqat o'z huquq va erkinliklarining yaxshi biluvchi, balki ularni amalga oshira oladigan hamda o'z burch va majburiyatlarini ham ongli ravishda bajaruvchi insan sifatida jamiyatga asoslangan demokratok, huquqiy davlatni



## ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES International scientific journal

Volume: 2 Issue: 5



qurilishini o'z oldiga maqsad qilib olgan har bir demokratik davlatlar kabi O'zbekiston uchun ham muhum va dolzarb masala hisoblanadi.

Bola huquqlari — inson huquqlarining bolaga nisbatan ishlatalishi. Bu sohadagi maxsus normalarning ishlab chiqilishi, bolaning jamiyatdagi alohida holati, ularning oiladagi o'rni, yoshi bilan bog'liq maxsus huquqlarning hamma davlat qonunchiligidagi belgilanmaganligi voyaga yetganlar huquqlarning barchasiga ega emasligidan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligidagi **Bolalar** tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunda ilk marotaba tarif berilgan. Mazkur qonun qabul qilishiga qadar "bola" yoki "**bolalar**" tushunchasi qo'llanilinganda, uning mazmuni yoritilmagan. Bolaga berilgan ushbu tarif muhim, chunki Bola huquqlari kafolatlari to'g'risidagi qonun va bolalarga oid boshqa qonunlar kimlarni himoya qilishga qaratilganligini aniqlab beradi.

Bola huquqlarini ta'minlab berish, bolalami har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash masalalari jamiyatimizda qadimdan muhim masala bo'lib kelgan. 10 yil davomida (1979 yildan 1989 yilgacha) BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasida ishtirok etgan dunyoning ko'plab mamlakatlari mutaxassislari bola huquqlari to'g'risidagi yangi hujjatning matnini ishlab chiqdilar, unda bolaning jamiyatdagi hayotining barcha jabhalari maksimal darajada hisobga olinadi. 1989 yil 20 noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilindi.

BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi dunyoda eng ko'p davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan BMT bitimi bo'lib, u butun jahondagi bolalarning hayotini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda bola huquqlarini ta'minlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bola huuqlari konvensuyasini amalga oshirish uchun qo'mita tuzildi. Qo'mita 1989-yilgi bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlar o'zlarining bu boradagi majburiyatlarini qay tarzda bajarayotganliklarini kuzatib boradi. Konvensiya qatnashchisi bo'lgan davlatlar konvensiya bajarilishiga qaratilgan tadbirlar haqidagi va bola huquqlarini amalga oshirish sohasidagi taraqqiyot to'g'risidagi ma'ruzalami muntazam ravishda shu



## ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES International scientific journal

Volume: 2 Issue: 5



qo‘mitaning o‘ziga taqdim etadilar. Bu ma’ruzalaming milliy darajada oshkor etilishi va keng ommalashtirilishi ta’minlanadi.

Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitaning birinchi sessiyasi 1991-yilda bo‘lib o‘tgan. Qo‘mita o‘n nafar ekspertdan iborat. Uning zimmasiga bola huquqlarini rag‘batlantirish uchun kurashayotgan, konven-siya qatnashchisi bo‘lgan barcha davlatlar o‘rtasida muntazam muloqot yo‘lga qo‘yilishini ta’minlash vazifasi topshirilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarda O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan birinchi xalqaro shartnomaga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bo‘lsa, keyingi xalqarolik bo‘yicha asosiy shartnomaga esa Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya hisoblanadi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757-XII son qarori). Bu bilan O‘zbekiston bola huquqlari va erkinliklarini ta’minlash bo‘yicha bir qancha xalqaro- huquqiy tajribalarni ham o‘z zimmasiga oldi. Ma’lumki, Bola huquqlarining milliy qonunchilikning asosini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tashkil qiladi. Unga muvofiq voyaga yetmaganlarning huquqlari davlat himoyasidadir. Bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlar O‘zR „Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida“gi Qonuni bilan tartibga solingan.

O‘zbekistonda Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning bajarilishini tashkil etish masalalari bo‘yicha idoralalararo muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishi Toshkentda bo‘lib o‘tdi. Davlat va nodavlat tashkilotlari vakillari hamda xalqaro tashkilotlar mutaxassislari ushbu sohadagi ustivor masalalarni muhokama qildilar.

Bola huquqlariga oid milliy qonunchilik deganda, avvalambor, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 64-, 65-moddalariga e’tibor qaratish lozimdir. Jumladan, 64-moddada, “ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalami va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalami boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ish-langan xayriya faoliyatlarini rag‘batlantiradi” deb ko‘rsatib o‘tilgan. 65-moddada esa, “farzandlar ota-onalaming nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi” deb belgilab qo‘yilgan.

Bolani ota- onadan olib qo‘yish bolaning hayoti va sog‘lig‘i bevositga xavf ostida qolganda vakolatli organ bolani ota-onadan (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslardan)



## ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES International scientific journal

Volume: 2 Issue: 5



yoki ularning biridan, o‘z qaramog‘iga olgan boshqa shaxslardan zudlik bilan olishga haqlidir. Bolani zudlik bilan olish MFY dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

**Shuningdek Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishning umumiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:**

- qonunchilik hujjatlari, standartlar, davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- oilalarini mustahkamlash va qo‘llab quvvatlash, ota-onalik ko‘nikmalarini rivojlantirish, bolalarda zo‘ravonlik holatlariga qarshi hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- bolalar uchun xavfsiz va zo‘ravonlikdan xolis bo‘lgan muhitni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- zo‘ravonlikning sabablari hamda shart-sharoitlari bo‘lgan omillarni tahlil qilish, o‘rganish va bartaraf etish;
- aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot olib borish;
- bolalarni o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari to‘g‘risidagi, shuningdek himoya qilish kafolatlari haqidagi axborot bilan ta’minlash maqsadida axborot-ma’rifiy faoliyatni amalga oshirish;
- bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining statistik hisobi va hisobotini yuritish, ularni davlat statistika organlariga taqdim etish hamda zo‘ravonlik holatlarini oldini olish chora-tadbirlarini rejalashtirishda ulardan foydalanish;
- bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash va himoya qilishning samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish;
- aybdorlarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish.

Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar — Vazirlar Mahkamasi, Bolalar ombudsmani, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, prokuratura va ichki ishlar organlari, Oila va xotinqizlar qo‘mitasi, Yoshlar ishlar agentligi, davlat boshqaruv organlari va ta’lim muassasalari, hokimiyatlar, MFY va boshqalardan iborat. Ularning vakolatlari (8–21-moddalarda) aniq belgilab berilmoqda. Bolalar huquqlariga tayziq o‘tkazish ehtimoli hamma yerda ham bo‘lishi mumkin.

Unicef o‘zining O‘zbekiston hukumati bilan hamkorlik dasturi doira-sida ana shu masalalarga e’tibor beradi. 2005-yil avgustda O‘zbekiston Respublikasi hukumati va unicef tashkiloti o‘rtasidagi 2005–2009-yillar-ga mo‘ljallangan mamlakat harakat



rejasi dasturi imzolandi. Ushbu rejada bola huquqlarini kafolatlash va himoya qilishga qaratilgan yagona (umumlashtirilgan) huquqiy hujjat ishlab chiqish va qabul qilish borasidagi hukumat tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlari qo'llab-quvvatlash, bolalar huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ularga nisbatan odil sud-lovni amalga oshirish bilan bog'liq institutsional tizimni yanada takomillashtirish, jumladan, bolalaming oila hayoti muhitiga bo'lgan huquqlarini keng targ'ib qilish, bolalarga mo'ljalangan muassasalaming muqobil ko'rinishlarini yaratish va ular bilan bog'liq bir qator masalalarga oid qoida-lar o'z aksini topkan.

**Xulosा:** Ushbu maqolada bola huquqlari, ularni himoya qilishning yuridik asoslari, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar, yosh avlodni erkinligini, insonparvarligini, komil inson bo'lib yetishishini, inson sifatida jamiyatda teng huquqda bo'lishi hamda uning mazmuni-mohiyati ochib berildi. Umuman, bola huquqlari, ulaming kafolatlari to'g'risida xulosa qilib aytish mumkinki, aholisining katta qismi yoshlami tashkil etuvchi mamlakatimiz uchun bola huquqlarini ta'minlash va ulami himoya qilish masalasi mamlakatda demokratik, huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim shartlaridan biri bo'lib qolmoqda. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki davlatimizning bola huquqlarini himoya qilish yuzasidan konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan normalarni hayotga ischil tatbiq etish yo'lida olib borayotgan siyosati Bolaga va uning huquqlarini taminlashga qaratilgan.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent. - O'zbekiston 2021
3. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi
4. Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya va uning fakultativ protokollari.- Toshkent -2009,7 b.
5. Madayev, O., Sobirov, A., Xolmanova, Z., Toshmirzayeva, S., Ziyodullayeva, G., & Shamsiyeva, M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Va O'Rta Maxsus Ta'lim Vazirligi.
6. Нуриллаев, Ж. Я., & Мухамадиев, Н. К. (2007). Особенности липидного обмена у больных с пузырно-влагалищными свищами. Урология, (6), 36-39.
7. Qo, J. S. I., & Gulbahor, M. (2023). Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida Tarbiyalanuvchilarni Maktab Ta'limiga Taylorlashning Pedagogik Asoslari. Qo 'Qon Universiteti Xabarnomasi, 8, 98-100.



**ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES**  
**International scientific journal**

**Volume: 2 Issue: 5**



8. Нуриллаев, Р. Я. (1991). Эффективность использования биохимических показателей крови при оценке племенных качеств баранов каракульской породы.
9. Ikromjonovna, J. S., & Husanovna, Y. L. S. (2023). Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida Sog 'Lom Ovqatlanishni Tashkil Etish. Образование Наука И Инновационные Идеи В Мире, 34(6), 85-90.
10. Нуриллаев, Р. (2023). Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы.
11. Jumanova, S. I., & Mullaboyeva, G. (2023). Bolalarni Maktab Ta'limiga Tayyorlashda Sharq Va G 'Arb Allomalarining Qarashlaridan Foydalanish. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 445-451.
12. Нуриллаев, Р., & Нуриллаев, Ш. (2023). Повышение эффективности депозитной политики в коммерческих банках.
13. Jumayev, F. B. (2023). Legal Services for Collection of Expenses: Problems and Proposals. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(6 (International Scientific Researcher)), 9-13.
14. Нуриллаев, Ж. Я. (1999). Оценка метафилактических мероприятий по отдаленным результатам хирургического лечения мочекаменной болезни у детей.
15. Xolmanova, Z., & Shamsiyeva, M. Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati. О 'ZBEKISTON, 6.
16. Nurillaev, R. Y. (2024). Ensuring food safety in a changing world: challenges and solutions.
17. Нуриллаев, Р. (2023). Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире.